

ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIGI RUHIY ZO‘RAVONLIKNING BADIY TALQINI

Eshpo‘latova Kamola Abdijalilovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti

kamolaeshpolatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada istedodli ijodkor Zulfiya Qurolboy qizining “Yomg‘irli yo‘lka”, “Rashk” hikoyalaridagi ayollarga qilingan ruhiy zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik ildizlari va uning qahramon ruhiyatiga tasiri badiiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Detal, badiiy talqin, ichki monolog, ruhiy zo‘ravonlik, obraz.

Abstract. This article provides an artistic analysis of the socio-psychological roots of psychological violence against women in the stories “Rainy Road” and “Jealousy” by the talented artist Zulfiya Qurolboy qizi and its impact on the psyche of the heroine.

Keywords: Detail, artistic interpretation, internal monologue, psychological violence, image.

Аннотация. В данной статье представлен художественный анализ социально-психологических корней психологического насилия в отношении женщин в рассказах «Дождливая дорога» и «Ревность» талантливой художницы Зульфии Курольбой Кизи и его влияния на психику героини.

Ключевые слова: Деталь, художественная интерпретация, внутренний монолог, психологическое насилие, образ.

Kirish. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida bugungi kunda ayol obrazi turli rakuclarda talqin etilmoqda. Ayolning qalb kechinmalari, ruhiy olamidagi evrilishlar, oiladagi va jamiyatdagi roli va maishiy hayot ichidagi kurashlari bir qancha hikoyalarida o‘ziga xos tarzida aks etirilgan. Adabiyotshunoslikda ayol azaldan sabr – qanoat va mehr – muhabbat, sadoqatli umr yo‘ldosh, ona timsoli bo‘lib kelgan.

Taniqli yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizining ko‘pgina hikoyalarida ham xotin –qizlar obrazi o‘ziga xos tarzida aks etirilgan. Adibaning “Yomg‘irli yo‘lka”, “Rashk” hikoyalaridagi ayollar obrazi ham umumiy jihatlarga ega. Ijodkor bu hikoyalarida o‘z qarashlari bilan birga hikoyadagi ayollar qismati orqali jamiyatimizdagi og‘riqli muammolarni ham aks ettirgan. Taniqli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ta’kidlaganidek “Zulfiya, asosan, anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurushmagan, nochor, taqdirning noravon yo‘llarida sarson-u sargardon kishilar obrazini yaratadi. U bunday holatlarning qanday qilib vujudga kelish sabablarini izlamaydi, o‘sha holatni aynan tasvirlash va o‘quvchining ko‘ziga ko‘rsatish bilan kifoyalanadi [1:4-bet].

Adabiyotlar sharhi. Bu hikoyalarda oilaviy ziddiyatlar va ruhiy bosim buning oqibatida qahramonlar hayotida va psixologiyasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar qalamga olingan. Ya’ni ijodkor qahramon ruhiy olamini tahlil qilishda psixoanalizdan yuksak badiiy mahorat bilan foydalanadi. “Yomg‘irli yo‘lka” hikoyasida jamiyatimizda shuningdek ayrim oilalarda mavjud bo‘lgan zo‘ravonlikning fizio – biologik ko‘rinishidan ko‘ra psixologik ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan ruhiy zo‘ravonlik va uning oqibatlariga ko‘proq ahamiyat qaratilgan .

Tadqiqot metodologiyasi. Hikoya qahramoniga yozuvchi tomonidan ism ham tanlanmagan shunchaki uni Ayol deb nomlaydi. Bu bilan yozuvchi hayotimizdagi shu toifadagi ayollarning umumiy obrazini yaratishga harakat qiladi. Hikoya qahramoni bo'lajak bastakor ayol tarbiyali obro'li oilaning farzandi bo'lgan banker yigit bilan turmush quradi. Lekin uning hayoti turmushi boshidanoq baxtsiz, sovuq munosabatlarga qurilgan edi. "Ayol zoti uchun oila qurish baxt bo'lsa ochig'i uning bunday baxtga ko'nikishi oson kechmadi. Go'yo hashamatli xonadonga adashib kirib qolgan kapalakdek his qilardi o'zini. Aftidan eri uni noshukr deb o'ylasa kerak, keying vaqtlarda bir gapni tez-tez takrorlaydigan bo'lib qolgandi: Siz mening rafiqamsiz, o'zingizning musiqachi ekanligingizni ham unutmang. Hadeb bekorchi narsalar haqida o'ylavermasdan ijod qiling. Ana pianino, ana qog'oz qalam! Bo'sh vaqtingizni behuda o'tkazmang. Odamlar bunday sharoit uchun vijdonini sotishga tayyor-ku siz bo'lsangiz"[3: 31]. Bu parchadan ko'rinib turibdiki, yosh kuyov o'zi tomonidan yaratib berilgan imkoniyat va sharoitni minnat qilish orqali ayol ruhiyatida salbiy tasir o'tkaza boshlagan.

Tahlillar va natijalar. Ularning birinchi farzandi ya'ni o'g'li nogiron tug'iladi va uni eri bolalar uyiga topshiradi. Shundan keyin dunyoga kelgan ikki qizining ham nutqida nuqsoni bor edi. Buning uchun oila a'zolari va eri uni aybdor sanashardi ya'ni unga ruhiy bosim o'tkazishardi buning natijasida uning o'ziga bo'lgan ishonchi so'na boshlaydi. Shundan so'ng ayol o'zligini va musiqani butunlay unutadi. Kunlardan bir kuni turmush o'rtog'i qizlarining nuqsonini davolash uchun uyiga maxsus o'qituvchi olib keladi. U juda go'zal edi. Ayol uning yonida o'zidan uyala boshlaydi shuning uchun u bilan yonma – yon turishdan qochadi. Bu esa qahramon hayotidagi zo'ravonliklarning ayol ruhiyatini yemirib borayotganing belgilaridan biri edi. Borgan sari ayolga nisbatan erining munosabati sovuqlashib boradi. Uni shaxs sifatida ham ayol sifatida ham tan olmasdi shuning uchun o'z uyida ayolning ko'z oldida u ayol bilan unga xiyonat qiladi. Qayinotasi ham o'g'lining bu ishini ma'qulaydi. Chunki unga sog'lom merosxo'r kerak. Eri unga alohida yashashni taklif etadi va ikki xonali uy olib beradi. Qonuniy ajrashish haqida esa og'iz ochmaydi. Ayol esa hech qanday qarshiliksiz bunga rozi bo'ladi. Eri u ayol bilan yashay boshlaydi. Ayol esa rashk olovida qovrila boshlaydi. Eri shundan keyin farzandlaridan xabar olmaydi. Ayol maktabga o'qituvchi bo'lib ishga kiradi lekin u yerdan oladigan maoshi oilaviy xarajatlarini qoplay olmagan uchun bozordan eski -tuski narsalar sota boshaydi. U erining bir kun kelib qaytib kelishini undan kechirim so'rashini intizorlik bilan kutadi. Bu esa personajning ichki monologlaridan yaqqol seziladi.

Hikoyaning boshini yozuvchi yelkasida og'ir sumka ko'tarib yo'lak bo'ylab ketayotgan ayolning o'y-xayollari tasviri bilan boshlanadi va hikoya davomida yo'lka, sumka va yomg'ir va atrofdagi mashinalar (Yitqich qushlar) kabi kichik detallardan ham umumli foydalanadi. Bu yerdagi yo'lkani ramziy ma'noda insoning hayoti taqdir yo'li uning yelkasidagi og'ir sumka esa ro'zg'or va farzandlari tashvishlari va ayol qalbining tubidagi hech kimsaga ayta olmagan alam -iztiroblarini ochib berishga xizmat qilgan. Shu

kabi badiiy detallar bilan birga hikoya soʻngida yozuvchi “Koʻkni qoplagan bulut shovqin solmasdan, ohista koʻz yoshlarini toʻka boshladi “ yozuvchi badiiy psixologizimning bir turi hisoblangan pezaj tasviri orqali qahramon ruhiy holatidagi his-tuygʻularni uygʻun holatda taʼriflagan.

Yozuvchining “Rashk hikoyasida esa oilasi va farzandlari uchun bor yoʻgʻidan kechgan, Olloh tomonidan inom qilingan goʻzalig-u latofatini qurbon qilgan ayol Xosiyatning xiyonatga uchrashi haqida hikoya qilingan. Ovulning eng goʻzal qizi Xosiyat oʻn yetti yoshida qoʻshni qishloqlik Donoboy boboning toʻngʻich oʻgʻli adabiyot oʻqituvchisiga turmushga chiqadi. Uning goʻzalligi butun qishloqqa doston edi. Turmush oʻrtogʻi uning qoʻlini sovuq suvga ham urishini istamaydi. Doimo uning yonida parvona, ammo vaqt oʻtishi bilan turmush tashvishlari ogʻir mehnat sharoiti tufayli ayolning tashqi koʻrinishi oʻzgarib sochlari oqara boshlaydi. Buning natijasida erining ayolga boʻlgan munosabati oʻzgara boshlaydi. Unga oʻzinga qarab yursang boʻlmaydimi shundan boshqa koʻylaging yoʻqmi deya bir necha bor tanbih beradi. Shu sababli u mehmonga borganda kiyib boradigan atlas koʻylagini kiyadi. Uning bu holatini koʻrgan oila aʼzolari hayratlanib qarashadi va biror joyga mehmonga ketayotgan boʻlsa kerak deya oʻylashadi. Xosiyat shu kuni bu kiyimda oʻzini noqulay his qiladi va uy ishlarini ham koʻngildagidek bajara olmaydi. Qaynonasining kelinligidan estalik boʻlgan katta Xitoy laganini sindirib qoʻyadi. Bundan Risolat kampirning rosa jigʻi- biyroni chiqadi”. Sen, - dedi u keliniga qoʻlini bigiz qilib, Qosh koʻzingni boʻyaguncha ishingga puxta boʻl! Xosiyat kelinning yuzidan olov chiqib ketdi. Lip etib uyiga kirdi-yu kiyimlarini yechib har yoqqa ota boshladi”[2:189]. Erining doimiy beradigan hissiy kamsitishlari uning qalbiga ozor beradi. “Oxiri chorbogʻdan oʻtadigan ariq boʻyiga borib qoʻllariga loy chapladi. Ancha vaqt shu koʻyi oʻtirdi. Soʻng yuvib tashlab ortiga qayratkan xoʻrligi kelib koʻzlariga yosh toʻldi. Kelin boʻlib tushgandan beri birinchi yigʻlashi edi. Olma daraxtiga suyanib oʻksib-oʻksib uzoq yigʻladi”[2:289].

Quyida berilgan parchada esa berilgan yozuvchi Xosiyatning sabri fidoiyligi uning qalbida hech kimga ayta olmagan dardlari orzu va umidlarini tasvirlaydi. “Ayolning hech kimga aytmaydigan birdan bir orzusi bor edi. Upa- elikni atirlar-u, taqinchoqlarni eri unga sovgʻa qilishini juda - juda xohlardi. Atirlari shu qadar koʻp boʻlishini istardiki, hech qachon ado boʻlmasa. Oʻzidan tappi emas atirgul hudi anqib tursa”[2: 289]. Erkak kishining ahli ayoliga yaxshi munosabatda boʻlishi uning barcha ehtiyojlarini taʼminlashi kerakligi va ularga yaxshi muomalada boʻlishi kerakligi haqida Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) shunday deganlar “Moʻminlarning iymoni eng komili ularning xulqi eng goʻzalidir va yaxshilaringiz ayollariga yaxshilaringizdir”[6:245] deganlar.

Sherali muzqaymoqchi xotin bilan Xosiyatni taqqoslab u ham har kuni erta tongdan ishlashi uning ham uy yumushlarini bajarishini lekin shunga qaramay doimo oʻziga qarab goʻzal boʻlib yurishini aytadi. Bu soʻzlarni eshitgan ayol qalbidagi nola-faryodni “Labini tishlab boʻgʻziga tiqilgan oʻkirikni bazoʻr qaytardi”. (2:289). Inson odatda kuchli stressli

holatlarda lablarini tishlaydi. Bu yerda qahramon ham holatini oshkor etmaslik uchun ongsiz ravishda bu harkatni bajargan. Kunlar o'tgan sayin Sherali xotinidan uzoqlashib borar ishdan so'ng ham uyiga xursand kayfiyatda kech qaytardi. Kunlardan bir u bog'dagi olmalarni sotish uchun uyiga mehmonlarni taklif qiladi. Ularning orasida muzqaymoqchi ayol har bor edi. Tasodifan ayol eri va muzqaymoqchi ayolning suhbatini eshitib qoladi. Muzqaymoqchi xotinning Sheraliga qarata essiz shunday erkak xotinga yalchimagan ekansiz" degan so'zlarini eshitgandan so'ng butun tanasi muzlab devorga suyanib qoladi. Uning bu vaziyatdagi holatini ijodkor monologlar ya'ni badiiy adabiyotda personaj ruhiyatini ochib berish, uning ongida kechayotgan o'ylov mushohada jarayonlarini tasvirlash maqsadida "ichki nutqdan "[4:209] keng foydalangan va buni shu darajada mohirlik bilan tasvirlaydiki, natijada o'y- xayollar kitobxon qalbiga ham ko'chadi". U meni erimga yomonlab tortib olmoqchi...Meni to'pori dedi-ya? E, Xudo, endi nima qilman, qanday kunlarga qoldim?Dardimni kimga aytaman[2:292]. Shu kabi o'ylar bilan butun fikri yodi band bo'lib yurgan Xosiyat chorva mollarini quriqlash uchun asraladigan mehmonlarni ko'rinb tinmasdan akilab jazavaga tushayotgan qopog'on itni boshqa joyga bog'lash uchun boradi. Shu paytda bog' tomondan o'ziga mazaxomuz qarab turgan ayolni ko'rib itning zanjirini "bexosdan" tushirib yuboradi. Shundan so'ng bog' tomondan ayol kishining jon holatda baqirgan ovozi eshitiladi. Bu harakat ayolning qalbida alam va iztiroblarining yuzaga chiqishi eriga va u ayolga nisbatan qilgan isyoni edi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Zulfiya Qurolboy qizining "Yomg'irli yo'lka", "Rashk" hikoyalarida oiladagi ruhiy bosim va buning natijasida ayollar ruhiy olamidagi alam- iztirob va bunga sabab bo'lgan voqiya va hodisalar teran yoritilgan asar sifatida o'zbek nasrida alohida e'tirofqa loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xurshid Do'stmuhammad. Havas va ishonch. Z.Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005.
2. Zulfiya Qurolboy qizi Ayol G'afur G'ulom nashryoti. Toshkent 2019 .
3. Zulfiya Qurolboy qizi Boyvuchcha Turon zamin Toshkent 2023.
4. Quronov.D.H Adabiyot nazariyasi asoslari Innovatsiyo- Ziyo Toshkent 2020
5. Quronov.D, Mamajonov .Z, Sheraliyeva .M Akademnashr Toshkent 2010
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Baxtiyor oila HILOL-NASHR 2021